



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

GURLAN (XORAZM) SHEVASIDA POLIZCHILIKKA OID XALQ LEKSIKASI
XUSUSIDA

FOLK LEXIKON RELATED TO CUCURBIT CULTIVATION IN THE GURLAN
(KHOREZM) DIALECT

Hayotxon SALAYEVA,
TOSHDU TAU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SOQA7628

Annotation. *This article analyzes the folk lexicon of melon cultivation in the dialect of the Gurlan district of the Khorezm region from a linguistic perspective. The study sheds light on the dialectal characteristics of words and phrases related to melon crops, their phonetic, lexical and semantic aspects. It also examines the role of this lexicon in the farming experience of the local population and the traditional agricultural culture. The article aims to identify the specific linguistic units of the Gurlan dialect and to classify them scientifically.*

Key words. *dialect, Gurlan (Khorezm) dialect, “Devoni lug‘otit turk”, lexical unit, farming, poly crops, farmer, phonetic, semantic, areal, dialect.*

Shevalar tilimizning bebaho xazinasi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, leksikada ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham shevalar tilimiz lug‘at boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek “Til korpus”ini yaratishda alohida obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, S.Ashirboyev ta’kidlaganidek: “Har bir xalq o‘z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o‘z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig‘ini moddiy va ma’naviy dunyosini, his-tuyg‘ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to‘xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo‘ladi va boyib boradi” [Ashirboyev, 2021:3]. Darhaqiqat, shevalar til zaxiramizning asosi hisoblanadi. Shu qatorda Xorazm shevalari ham o‘zining serqirraligi bilan ahamiyatlidir.

Dehqonchilik jarayoni xalq hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Dehqonchilik munosabatlarida, albatta, har bir hudud aholisi o‘zi yashab kelayotgan hudud atrofidan dehqonchilik qilar ekan, bu jarayonlarda o‘z shevasidan foydalanadi.

Ma’lumki, “Devoni lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlarning yashash hududlari, mehnat faoliyatlariga oid bo‘lgan ma’lumotlar batafsil berilgan. Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyoning bir qancha shaharlari muhim savdo-sotiq markazlari hisoblanishi bilan bir qatorda dehqonchilik uchun qulay hudud ham hisoblangan. Quyida “Devon” tarkibidagi ba’zi dehqonchilikka oid leksemalarning o‘zbek adabiy tilidagi varianti hamda Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek shevalari nutqida ifodalanishi bilan qiyosan o‘rgangan holda keltirib o‘tdik. “Devonu lug‘otit turk” asari tarkibida qo‘llanilgan dehqonchilikka oid so‘zlarning mavzuviy guruhlanishi:

1. Dehqonchilik asboblari nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: amach, etuk, etuklandi, azri, karki, ketman, nijdag‘, kasurgu, qandig‘u, charuqluq, saban;

2. Don va ulardan hosil bo‘luvchi mahsulot nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: urug‘luk, tarig‘, so‘kti, qog‘urmach, tub, suvsush, tokukli tarig‘;

3. Poliz va sabzavotchilik mahsulotlariga xos tushunchalar: jag‘mur, sog‘un, qag‘un, burduz, tarmaz, xo‘jo‘nak. [Худойбердиев, 2010:8]

Tadqiqotlarimiz jarayonida “At-tuhfatuz zakiya fil-lug‘atit turkiya” asarida dehqonchilikning deyarli barcha tarmoqlariga oid leksemalar mavjudligi aniqlandi. Asardagi dehqonchilikka oid leksemalarni qo‘llanish sohasiga ko‘ra quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratishimiz mumkin.

1. Mevachilikka oid tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar: enjir, xurmo, alma, shaftoli, juzum, limun, kogam, eruk;

2. Poliz va sabzavotchilikka oid leksemalar: qovun, kashur, turp, sug‘an;

3. Don va uning mahsulotlarini ifodalovchi leksemalar: kunji, arpa, bug‘day, buyday, jarma, kepak, kavuk, shop, burg‘on, qilchiq;

4. Qo‘shchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar: ekti, sapandi, aqtardi;

5. Sug‘orishga xos leksemalar: ariq, avlaq, Shamruq, ajlaq, jirlan aqar, ermaq, qoquz, qoruv, shikraq, ozan, su.

Shunisi ham borki, bu jarayonlarga bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar tilning leksik sathiga ham ta’sir qiladi. Sheva vakillari tomonidan bunday so‘zlar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki qisman o‘zgarishlarga uchragan holda ishlatilishi mumkin. Jumladan, Gurlan (Xorazm) shevasi dehqonchilik munosabatlarida ishlatiladigan so‘zlarni tadqiq etish jarayonida shu narsalarga ham guvoh bo‘lamiz. Quyida polizchilik jarayonlarida ishlatiladigan ba’zi so‘z va so‘z birikmalarini keltirib o‘tamiz:

Gürvāk – Xorazmning “tashrif qog‘ozi” hisoblangan, avgustda pishadigan eng shirin va xushbo‘y qovun turi. *Gürvāk dim mazzi qavün, jazda häzzetip jimiz.* F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” [113] kitobida ham bu so‘z keltirib o‘tilgan: **gürvāk** – yozgi qovun. Bu navni Toshkentda “kuvrak” yoki “bo‘rikalla” deb ataydilar. Yumaloq, eti qalin, sersuv bo‘ladi. Iyul – avgustda pishadi.

Qarriqiz – Kechpishar, qishga saqlashga mo‘ljallangan qovun navi. F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” [113] kitobida bu so‘z ham keltirilgan: **qarri qiz** – yozgi qovun, rangi sap-sariq, usti g‘adir-budur, mag‘zi qalin, juda shirin qovun deya ta’rif berilgan.

Börikällä – Shakli bo‘rining kallasiga o‘xshashligi uchun shunday nomlangan qovun navi.

Triš – Poliz ekinlarining o‘ziga xos mahalliy variantlari.

Baqlašān – Xorazm shevasida baqlajon.

Xarmiz – tarvuz. Shevada salbiy o‘xshatishlarda (masalan, kalla shakliga nisbatan “xarmiz källä”) ham faol qo‘llaniladi. *Dädām bazardan xarmiz äpkildi.*

Kädi – Qovoq, palak otib o‘sadigan, shapaloq bargli, karnaysimon yirik sariq gulli, bir yoki ko‘p yillik poliz o‘simligi va uning turli shakllarda bo‘ladigan yirik hosili. Bu so‘z turmush qurmagan yigit yoki qizning juftiga nisbatan ham ishlatiladi. *Bügün kädin bilän nerdä üčräšžaqsan?*

Ošin kädi – shakli uzunchoq bo‘lgan qovoqning yana bir turi. *Apam бүгүн kečkä kädi mantı pışirdi.*

Jöñirčqa – Beda. Chorva uchun ekiladigan poliz ekini turi. Bahorda endi unib chiqqan payti terib olinib ovqat ham qilinadi. Bu taom “ko‘k bo‘rak” deb nomlanadi va asosan Xorazmda qilinadigan milliy taom hisoblanadi.

Päčä – uzunchoq karam nomi.

Porriq – O‘zagi qurib, ichi bo‘sh bo‘lib qolgan (asosan qovun yoki bodringga nisbatan).

Bädrän – bodring, shevada yosh bolalar tilida **“baddi”** shaklida ham qo‘llanadi. *Atizdan bädrän terip kep bankägä basdiq.*

Pamadir – pomidor, shevada yosh bolalar tilida **“pammı”** shaklida ham ishlatiladi. *Xazir bazarda pamadir dimmm qimmat bop türipti.*

Kärçkä – Ildizmevali, bir yillik sabzavot o‘simliklaridan biri va uning ildizida yetishadigan, ovqat uchhun ishlatiladigan hosili, kartoshka. *Ujdä kärçkä tamam bopti, dukannan äpke.*

Pijaz – piyoz, tugunagi va yosh bargi ovqatga ishlatiladigan bir yillik va ko‘p yillik sabzavot o‘simligi. Boshqa hududlarda bo‘lgani kabi Gurlan tumani hududida ham **“aq pijaz”**, **“qizil pijaz”**, **“kok pijaz”** kabi turlari bor. *Apam maqa: “Avqatqa pijaz tuvrup sol”, – dedi.*

Gäšir – sabzi. Hududimizda asosan sariq sabzi ekiladi. Bahorgi sabzi va kuzgi sabzi kabi turlari bor. *Äkam palavdin gäsirini jemidi.*

Balgarski – bulg‘or qalampiri. *Men avqat pışirsäm balgarski samaj pışirämän, nuvra desä balgarski jemmän.*

Ačči bürč – qalampir yoki garmdori. *Bizär pijazdin arasina ačči bürč qošip egämiz.*

Ükrop – shivit.

Xulosa qilib aytganda, Gurlan tumani shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi o‘zining boyligi va o‘ziga xos dialektal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada shevada qo‘llanadigan poliz ekinlari nomlari hamda ular bilan bog‘liq so‘z va iboralar tahlil qilinib, ularning fonetik va leksik-semantik jihatlari aniqlandi. Ushbu leksik birliklar hudud aholisi turmush tarzi, dehqonchilik madaniyati va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi kuzatildi. Shuningdek, shevaga xos birliklarni o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi va etnolingvistikasini boyitishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Абдуллаев Ф. «Девону луғатит турк» асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи // ЎТА. Тошкент: 1971, – № 5, 51-56-бетлар.
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961.
5. Boboyorov G. B. O‘zbek shevalarida “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi so‘zlarning saqlanishi to‘g‘risida // Oltin bitiglar – № 2, 90-111-betlar.
6. Boltayeva Z. “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida Xorazm shevasiga xos fonetik xususiyatlar // Tamaddun nuri – Toshkent: 2024. – № 6. 56-58-b.
7. Дадабоев Х. Девону луғотит туркдаги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик хусусиятлар ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: 2008. 3-9 б.
8. Ишаев А. Девону луғатит турк ва ўзбек шевалари // ЎТА. Тошкент: 1971. – № 5, 63-67 б.
9. Маҳмуд Кўшғарий. Девону дуғотит турк. – Тошкент, 2017.
10. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент, 1971.
11. Худойбердиев Ж. “Девону дуғотит турк” қачон топилган? // Ўзбек адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2006. – № 8, 4 б.